

MULK HUQUQI TUSHUNCHASI VA TAMOYILLARI HAMDA UNING HUQUQIY MAZMUNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11034749>

Avazov Jamshid Ahad o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Allayorova Muattar Choriyorovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada moddiy ne'matlarning aniq bir shaxslarga tegishligini mustahkamlovchi, tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi normalar yig'indisi hisoblangan va fuqarolik huquqining asosiy tartibotlaridan biri bo'lgan mulk huquqi to'risida ma'lumotlar, mulkdor bo'lish huquqi, mulk shakllari, xususiy mulk va ommaviy mulk huquqi, shuningdek mulkka egalik qilish va mulkdan mahrum qilish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar

mulk huquqining vujudga kelishi: dastlabki va hosila hamda bekor bo'lish asoslari, mol-mulk fuqarolik huquqi obyektida ko'char va ko'chmas mulk, mulkdor bo'lish huquqi, mulk shakllari: xususiy mulk va davlat mulki, xususiy mulkning daxlsizligi, umummilliy boylıklar.

Mulkka ega bo'lish har bir insonning faqat hayot kechirishini emas, erkinligini, kelajakka ishonch bilan qarashni, avlodlar oldida obro'sini ta'minlovchi shartlardan hisoblanadi. Yurtimizda tavar va pul munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyoti qaror topgandan so'ng hayotimizda bir qator yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlar vujudga keldiki, bu esa, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, erkin iqtisodiy munosabatlar vujudga kelishi ta'minladi. Bu holat o'z navbatida, mulkiy munosabatlar tizimida bir nechta yangi qoidalar vujudga kelishiga zamin yaratdi. Mamlakatimizda mulkdor bo'lish huquqi Konstitutsiyamizdagina belgilanib qolmasdan, shu huquqni ro'yobga chiqaruvchi, aniqrog'i shaxslarning mulkdor bo'lish huquqini ta'minlovchi ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilinib, bir qator tadbirlar o'tkazildi.

Mulkchilik – insonning boyligi bo'lmish ashyo, buyum yoki boshqa narsaga nisbatan egalik his-tuyg'usi bilan bog'liq munosabat, yoki ana shu boyluk, ne'mat xususida kishilar o'rtasida vujudga kelgan munosabatdir.

Mulk huquqi qonunga binoan meros olish, bitimlar hamda shartnomalar orqali qo'lga kiritish, mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, davlat mol-mulkini xususiylashtirish, mehnat faoliyati, tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati hamda boshqa qonuniy asoslarda vujudga keladi.

Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari deganda, mulk huquqining olinishi va yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lgan yuridik fakt hisoblanadi. Mulk huquqining olinishi: dastlabki va hosila asoslarga bo'linadi. Dastlabki asoslar bo'yicha mulkka nisbatan egalik huquqi ilgari hech kimga tegishli bo'lmagan mulkka yoki avvalgi mulk egasining huquqi bilan bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladi. Mulkka nisbatan egalik huquqini beruvchi asoslardan biri hisoblangan hosila usuli deganda, shaxs tomonidan mulkka bo'lgan huquqning olinishi dastlabki mulk egasining huquqiga bog'liq bo'lgan usul nazarda tutiladi.

Mulk huquqining dastlabki asosda vujudga kelishi:

- tabiat ne'matlarini o'zlashtirish;
- ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish;
- yangi ashyolarni vujudga keltirish;
- egasiz mulkning sud qarori bilan davlat ixtiyoriga olinishi;
- hamma yig'ib olishi mumkin bo'lgan ashyolarni o'zlashtirish;
- egasi bo'lmagan mulkka yoki egasi bo'lsa ham xo'jaliksiz bilan saqlanayotgan mulkka, egalari tomonidan belgilangan muddatlarda talab qilib olinmagan mulklarga, shu jumladan topilgan ashyolar, xazinalar topilishi hollarida yuz beradi⁵⁶.

Mulkka nisbatan egalik huquqining vujudga kelishida egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat o'ziga xosdir. Fuqarolik kodeksi 187-moddasida keltirilishicha: mulkdor bo'lmagan, ammo ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzliksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka nisbatan mulk huquqini oladi hamda mulkdor huquqlariga ega bo'ladi. Egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqi ham dastlabki asosda vujudga keladi. Egasi bo'lmagan yoki egasi no'malum ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko'char ashyolarga nisbatan egalik qilishni vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin. Bunda ashyo fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoxud tegishli davlat organi arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organda hisobga olinadi hamda tegishli davlat organi talabi asosida sud orqali davlat mulkiga o'tkazilishi mumkin.

⁵⁶ Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi: darslik. – T.: "Toshkent". 2022. 319-bet.

Mulkka nisbatan egalik huquqini yuzaga keltiruvchi asoslardan biri bo'lgan hosila usuli deganda, muayyan shaxs tomonidan mulkka nisbatan egalik huquqini olinishi dastlabki mulk egasining huquqiga bog'liq bo'lgan usul nazarda tutiladi. Hosila usuli odatda mulk huquqining ma'lum ashyoga nisbatan mulk huquqining ilgari ma'lum shaxsga tegishli bo'lishi yoxud ushbu ashyoga nisbatan paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bunda mulk huquqining boshqa shaxsga o'tishi haqida so'z boradi. Ushbu usul orqali mulk huquqi yuzaga kelganda shu mulkka nisbatan bo'lgan huquqni bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tishi haqida so'z yuritiladi.

Mulk huquqining bekor bo'lish usullariga quyidagilar kiradi:

- 1) mulkdorning erki, irodasidan tashqari mol-mulkning olib qo'yilishi orqali mulk huquqining bekor bo'lishi;
- 2) mulkdorning o'z erki-irodasi bo'yicha mulk huquqini bekor bo'lishi;
- 3) mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish yoki nobud bo'lishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi.

Ashyolarga nisbatan egalik huquqi ba'zi hollarda mulkdorning erk-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda bekor bo'lishi mumkin. Misol uchun, tabiiy ofatlar, zilzila, suv toshqini yoki yong'in natijasida ashyolar nobud bo'lishida mulk huquqi mulk egasining erkiga bog'liq bo'lmagan holda bekor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi **83-moddasida** keltirilishicha:

Mol-mulk fuqarolik huquqlari obykti sifatida ko'chmas mulkka va ko'char mulkka bo'linadi.

Ko'chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar kiradi.

Qonunda boshqa mol-mulk ham ko'chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkin.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarni qo'lga kiritish va ular bekor bo'lishining xususiyatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi.

Ko'chmas mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk ko'char mulk hisoblanadi. Ko'char mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish talab etilmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno⁵⁷.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach yurtimiz fuqarolari va mamlakatimizda yashovchi boshqa shaxslar mulkdor bo'lish huquqiga ega bo'ldi. Chunki Sobiq Ittifoq tuzumi davrida qabul qilingan birorta Konstitutsiyada

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi – T.: "Toshkent". 57-bet.

bunday huquq yo'q edi. Sotsialistik tuzum xususiy mulkni inkor etar edi. Mulk esa, xususiylik bilan bevosita bog'liq. Sobiq tuzum davrida xususiy mulk huquqiga ega bo'lish jamiyatdagi notenglikni keltirib chiqargan, jamiyatda ezuvchi va eziluvchi qatlarning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Mulk kishini kishi tomonidan tomonidan ezish sababi hamda ekspluatatsiya qilish deb ko'rsatilar edi.

O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining

41-moddasida:

“Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.”⁵⁸ – deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu moddadagi qoidalar bir qator masalalarni hal qilishga qaratilgan.

Birinchidan, har bir kishining mulkdor bo'lishi, ya'ni mulkka egalik huquqiga ega bo'lishini; ikkinchidan, mulkning ajralmas qismi bo'lgan bankka qo'yilgan omonatlarning sir saqlanishi huquqini; uchunchidan, mulk bilan bog'liq masala – meros huquqining qonun bilan kafolatlanishini.

Yurtimizda mulkdor bo'lish huquqi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilanib qolmasdan, shu huquqni mustahkamlovchi, vujudga keltiruvchi hamda ro'yobga chiqaruvchi, shaxslarning mulkdor bo'lish huquqini ta'minlovchi ko'plab normativ huquqiy hujjatlarda o'z aksini topdi. O'zbekiston Respublikasining “Mulkchilik tog'risida”gi Qonuni shular jumlasidandir. Endi mulk faqat mehnat qilish evaziga orttirilgan daromadlar bilan cheklanmay, qonunchiligimizda taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlari orqali mulkka ega bo'lish mumkinligi ushbu qonunda mustahkamlandi. Shuningdek, “Meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi” degan konstitutsiyaviy normaning amalga tatbiq etilishi mulkdorning mulki vasiyat bo'yicha yoki qonunda belgilangan tartibda merosxo'rga qoldirilishi meros huquqining kafolati hisoblanadi. Mulkdor o'z mulkidan qonunsiz yoki sudning hukmisiz mahrum etilishi mumkin emas. Shuningdek, Konstitutsiyamizning **66-moddasida** aks ettirilishicha:

“Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi lozim”⁵⁹.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi – T.: “O'zbekiston”. 2023. 26-bet.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi – T.: “O'zbekiston”. 2023. 39-bet.

Bugungi kunda mamlakatimizda xususiy mulkni himoya qilish asoslari bir qator normativ huquqiy hujjatlarda va qonunchiligimizda mustahkamlangan. Xususan:

“Mulkchilik to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to’g’risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

“Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni;

“Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash tartibi to’g’risida nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarori;

“Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori va boshqa normativ huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Shuningdek mamlakatimizda hozirda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to’g’risida” gi Qonun bilan Uy-joy kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida” gi va “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to’g’risida” gi qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Qonunda xususiy mulkka bo‘lgan huquqlar daxlsizligi, tadbirkorlik subyektlari manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlash nazarda tutilmoqda. Unda hech kim sud qarorisiz, qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati, u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta‘minlanishi belgilanmoqda. Qonun xususiy mulkning va mulkdorlar huquqlarining himoya qilinishi kafolatlarini kuchaytirishga, tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirish uchun qo‘shimcha kafolatlar hamda shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Yurtimizda so‘nggi vaqtlarda turar joylarning buzilishi kabi tobora dolzablik kasb etayotgan muammolarning oldini olishda bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan: “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Farmonida davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yishga faqat quyidagi hollarda yo'l qo'yilishi belgilangan:

mudofaa va davlat xavfsizligi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ehtiyojlari, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ularning faoliyat yuritishi uchun yerlarni taqdim etish;

xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish;

foydali qazilmalar konlarini aniqlash va qazib chiqarish;

avtomobil va temir yo'llari, aeroportlar, aerodromlar, aeronavigatsiya obyektlari va aviatexnika markazlari, temir yo'l transporti obyektlari, ko'priklar, metropolitenlar, tonnellar, energetika tizimi obyektlari va elektr uzatish tarmoqlari, aloqa tarmoqlari, kosmik faoliyat obyektlari, magistral quvurlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish (rekonstruksiya qilish);

aholi punktlari bosh rejalarini O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan obyektlar qurish qismida ijro etish, shuningdek, qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan boshqa hollarda⁶⁰.

Jamiyatimizda mulk huquqi sohasida erishgan muvaffaqiyatlarimizga qaramay, bir qancha kamchiliklarimiz ham mavjud.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili(Ombudsman) Kotibiyatining Murojaatlar bilan ishlash sektori mudiri Jasur Islamov ta'kidlashicha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan mulk huquqi bilan bog'liq murojaatlarning o'rganib chiqilishi natijasida bir qator muammolar va kamchiliklar aniqlandi. Xususan:

ko'chmas mulk egasini rozi qilmasdan hamda turar joylar baholanmasdan turib davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasining olib qo'yilayotganligi natijasida fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlari buzilmoqda va ularning davlat idoralari o'rtasida ovora bo'lishiga sabab bo'lmoqda;

turar joyi davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan buzilganligi bois unga turar joy qurish uchun mutanosib ravishda yer maydoni ajratish majburiyatini yuklash haqidagi sudning hal qiluv qarori mavjud bo'lsada uzoq yillar davomida sud qarori mahalliy hokimiyatlar tomonidan o'z vaqtida ijro etilmayapti;

davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olingan ko'chmas mulk o'rniga berilishi kerak bo'lgan turar joyning o'z vaqtida qurib bitkazilmasligi hamda ijara shartnomasi asosida vaqtincha yashab kelayotgan fuqarolarga uy-joy uchun

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 5495-son Farmoni.

to'lanishi kerak bo'lgan ijara pullari yetarli miqdorda va belgilangan vaqtda berilmayapti;

xususiy mulk daxlsiz va u davlat himoyasida bo'lsada sudlar tomonidan mulkdorni majburiy tarzda yashash imkoniyatiga ega bo'lmagan, umuman boshqa hududga ko'chirish haqida qaror qabul qilinmoqda⁶¹.

Shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, Economist Intelligence Unit va Freedom House xalqaro tashkilotlari tomonidan "Korrupsiyani tiyib turish" sindikatori bo'yicha O'zbekistonga "0" ball qo'yilgan. Bunga asosiy sabablar sifatida fuqarolarning turar joylari buzilishi, mansabdorlar tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilish holatlari jazosiz qolayotgani, joylarda maishiy korrupsiyaning mavjudligi va sud tizimida qonun ustuvorligining yomonlashuvi ko'rsatilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz lozimki, fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ularning mulkiy daxlsizligini ta'minlash bilan bog'liq qonun hujjatlari hamda amaliyotini yana-da takomillashtirish bizning asosiy vazifamizdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning normalarida hamda Fuqarolik kodeksida mamalakatimizda umummilliy boylik hisoblanuvchi davlat mulki hamda xususiy mulk mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Umummilliy boylik hisoblanuvchi obyektlar Konstitutsiyada bevosita davlat mulki deb atalmasa-da, boshqa qonunlarda va normativ hujjatlarda davlat mulki maqomi sifatida e'tirof etilgan. Qonun hujjatlarida mulkni qo'lga kiritishning ko'plab yo'llari keltirilib o'tilgan. Jumladan, meros olish, xususiylashtirish, hadya olish, asrash, sotib olish va boshqalar. Qonun bilan taqiqlanmagan ayrim ashyolardan tashqari, har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin. Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qo'lga kiritilgan mol-mulkka egalik qilish, uni erkin tasarruf qilish va foydalanish huquqidir. Ajablanarli jihati shundaki, xususiy mulk huquqida mol-mulkning miqdori, qiymati ko'rsatilmaydi. Mulk huquqi muddatsizdir.

Mulkning ikkinchi turi - ommaviy mulk hisoblanadi. Davlat mulk huquqi qonunchilik asosida davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkka davlat organlarining va u tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslarning aniq yo'naltirilgan va oldindan belgilab qo'yilgan maqsadni ko'zlab egalik qilishi, foydalanishi va uni tasarruf qilish huquqidan iboratdir. Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar tashkil topgan davlat mulki ommaviy mulk bo'lib, u ommaviy mulkka nisbatan qo'llaniladigan atama hisoblanadi. Davlat mulk huquqi va uning obyektlari haqida

⁶¹ Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) Kotibiyatining Murojaatlar bilan Ishlash sektori mudiri Jasur Islamovning "Xususiy mulkka bo'lgan huquqning kafolati" mavzusidagi maqolasi.

keng tushuncha O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **68-moddasi** va Fuqarolik kodeksining **214-moddasida** o'z aksini topgan. Konstitutsiyamizda keltirilishicha:

“Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar milliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin”⁶².

Mamlakatimizda “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning ishlab chiqilishi xususiy mulkning daxlsizligi va uning himoyasini yanada kuchaytirdi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining X bobi “O'zgarlar mulkini talon-taroj qilish” deb nomlanib, ushbu bobda bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik va o'g'irlik yo'li bilan mulkni egallaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan(164-169-moddalar). Xuddi shuningdek, transport vositalarini olib qochish, mulkni qo'riqlashga vijdotsizlarcha munosabatda bo'lish, mulkni qasddan nobud qilish yoxud unga zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan(172-173, 267-moddalar).

Qisqa xulosa

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari qonuniyatlari hisoblangan talab va taklif, raqobat qonuniyatlari bilan hamohang bo'lgan mulk shakllarining tengligi, mulkning daxlsizligi, har bir shaxsning mulkdor bo'lishga haqli ekanligi, mulkdorning o'z mulkidan o'z xohish va manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi kabi tamoyillarning huquqiy jihatdan kafolatlanganligi xususiy mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib beradi. Mulq huquqi kishilar tomonidan tabiat boyliklarini, ashyolarni o'zlashtirishdan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar tizimi hisoblanadi. Mulq huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni erkin ravishda tasarruf qilish, shuningdek, o'zining mulkka bo'lgan huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni talab qilishdan iborat.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi – T.: “O'zbekiston”. 2023. 39-bet.

Iqtisodiyotning negizini xima-xil shakllardagi mulk shakllari tashkil qilishi, mulk shakllaridan biri hisoblanuvchi xususiy mulk davlat tomonidan muhofaza qilinishi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yildi. Ana shu maqsadda Konstitutsiyaning o'zida va normativ-huquqiy hujjatlarida tegishli qoidalar belgilandi.

Xususiy mulkning daxlsizligi haqida gapirar ekanmiz Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi alohida ahamiyatga ega. Yurtboshimiz bu masalaga to'xtalib shunday degan edi: "Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratashimiz zarur. Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir"⁶³.

Bu siyosat keying davrda ham shiddat bilan ravnaq topib, davom etib kelmoqda. "...tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk daxlsizligini amalda ta'minlash bundan buyon ham davlat siyosatida ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi"⁶⁴.

Mamlakatimizda so'nggi paytlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarda o'rta va kichik biznesni rivojlantirish choralari ko'rilayotganligini, tadbirkorlik faoliyati huquqiy himoya qilinayotganligini, davlat mulkining izchillik bilan xususiylashtirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida mulkka egalik hissini uyg'otish, jamiyatda yetuk tadbirkorlar qatlamini va mulkdorlar sinfini shakllantirish hamda ularga qulay sharoit yaratib berishga keng yo'l ochib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi - T.: "O'zbekiston". 2023. 26-39-40-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi - T.: "Toshkent". 57-98-111-112-betlar.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. - T.: "Toshkent". 2022. 128-156-162-betlar.

⁶³ Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kosepsiyasi. - T.: "O'zbekiston". 2010. 48-bet.

⁶⁴ Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: "O'zbekiston", 2018. 2-tom, 37-bet.

4. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi: darslik. – T.: “Toshkent”. 2022. 318-325-340-betlar.
5. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rijoqlantirish kosepsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”. 2010. 48-bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. 2-tom, 37-bet.
7. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) Kotibiyatining Murojaatlar bilan Ishlash sektori mudiri Jasur Islamovning “Xususiy mulkka bo‘lgan huquqning kafolati” mavzusidagi maqolasi.

INTERNET MANBALAR:

8. <https://ombudsman.uz>
9. <https://staff.tiame.uz>
10. <https://srsl.uz>
11. <https://lex.uz>
12. <https://qalampir.uz>